



## **“UZTELECOMGIFTS” tanlovini o‘tkazish shartlari**

### **1. Umumiy shartlar**

1.1. Ushbu shartlar tanlovni o‘tkazish tartibini, tanlovda ishtirok etish va boshqa zarur shartlarni belgilaydi.

1.2. Tanlov tashkilotchisi - “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o‘rinlarda – Tashkilotchi).

1.3. Tanlovda Tashkilotchining xodimlari va vakillari, ularning oila a‘zolari ishtirok etishi taqiqlanadi.

1.4. Tanlovni o‘tkazish shartlari Kompaniyaning rasmiy veb-saytida e‘lon qilinadi. Tashkilotchi o‘tkazilayotgan tanlov haqidagi qo‘shimcha ma‘lumotlarni e‘lon qilish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Yangilangan ma‘lumotlar o‘z vaqtida “Instagram” (<https://www.instagram.com/uztelecomuz/>) ijtimoiy tarmog‘idagi rasmiy sahifada va Kompaniyaning rasmiy veb-saytida joylashtirib boriladi.

1.5. Tanlovda ishtirok etish tanlovning barcha shartlari bilan to‘liq tanishib chiqilganligini va ishtirokchilarning ushbu shartlar bilan to‘liq rozi ekanligini anglatadi.

### **2. Tanlovda ishtirok etish shartlari**

2.1. Tanlov O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi. Tanlovda O‘zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi fuqarolar va voyaga yetgan shaxslar (keyingi o‘rinlarda – “Ishtirokchi”) ishtirok etishi mumkin.

2.2. Ishtirokchi Tanlovda ishtirok etish bilan birga o‘zining akkaunt ma‘lumotlarini “Facebook” (<https://www.facebook.com/uztelecom/>), “Instagram” (<https://www.instagram.com/uztelecomuz/>) ijtimoiy tarmoqlarida, “Telegram” (<https://t.me/uztelecomuz>) kanalida, shuningdek, Kompaniyaning rasmiy veb-saytida e‘lon qilinishiga rozilik bildiradi.

2.3. Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

“Instagram” ijtimoiy tarmog‘idagi:

“Uztelecom” (<https://www.instagram.com/uztelecomuz/>),

“Stars retail” ([https://instagram.com/stars\\_retail.uz?igshid=1kxtaucoxuolp](https://instagram.com/stars_retail.uz?igshid=1kxtaucoxuolp)) manzillar

bo‘yicha rasmiy sahifaga obuna bo‘lish;

tanlov e'loniga layk bosish;

tanlov e'loni ostida 3 nafar do'stini belgilash;

Kompaniya faoliyatiga (xizmatlari yoki tarif rejalariga) oid 15 soniyadan -

2 daqiqagacha davom etadigan ijobiy mazmundagi videolavhani tayyorlash, shaxsiy sahifa orqali #UZTELECOMGIFTS xeshtegi bilan targ'ib qilish va maksimal darajada layk yig'ish;

mazkur e'lonni o'z sahifasida "Barcha uchun mavjud" holatida e'lon qilish.

2.4. Videolavhalar Kompaniyaning xizmatlari yoki tariflarini haqoratlovchi tarzda bo'lishi taqiqlanadi.

2.5. Kompaniya tahqirona videolavhalarni tanlovdan chetlatish huquqiga ega.

### **3. Tanlovni o'tkazish muddati**

3.1. Tanlovni o'tkazish davri 2020-yil 21-dekabrda 2021-yil 21-yanvargacha bo'lib, quyidagi muddatlarni o'z ichiga oladi:

2020-yil 21-dekabrda 2021-yil 15-yanvargacha - ishtirokchi sahifasida yig'ilgan layklar soni bo'yicha eng yaxshi 10 tagacha videolavhalarni aniqlash;

2021-yil 16-yanvardan 2021-yil 20-yanvargacha - "UZTELECOM" sahifasida yig'ilgan layklar soni bo'yicha 3 ta nominatsiyada g'oliblarni aniqlash;

2021-yil 21-yanvarda g'oliblarni taqdirlash marosimini o'tkazish.

### **4. Tanlovning yutuq jamg'armasi**

4.1. G'oliblarga taqdim etiladigan sovrinlar:

1-o'rin - Samsung A50 rusumli mobil aloqa apparati va 3-toifadagi mobil raqam uchun sertifikat;

2-o'rin - Samsung Galaxy Active 1 rusumli elektron soat va 4-toifadagi mobil raqam uchun sertifikat;

3-o'rin - Samsung Galaxy rusumli simsiz quloqchinlar va 5-toifadagi mobil raqam uchun sertifikat.

### **5. G'oliblarni aniqlash**

5.1. Tashkilotchi ishlangan videolavha uchun yig'ilgan layklar soni bo'yicha uch nafar g'olibni aniqlaydi.

5.2. Tanlov natijalari va g'oliblar ismi Kompaniyaning "Instagram" rasmiy sahifasida, "Facebook" ijtimoiy tarmog'idagi "UZTELECOM" guruhida, "Telegram" kanalida va Kompaniyaning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

5.3. Tashkilotchi g'olib bilan "Instagram" ijtimoiy tarmog'ida xabar almashinish yo'li

orqali bog‘lanadi. G‘olib sovrinni qo‘lga kiritish uchun barcha kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni, jumladan F.I.Sh., yashash manzili, tug‘ilgan sanasi, pasport raqami, mobil telefon raqami va elektron pochta manzili to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etishi shart.

5.4. Sovrinlar pul ko‘rinishida taqdim etilmaydi, ularni almashtirish yoki qaytarish mumkin emas.

5.5. Tashkilotchi tanlov Ishtirokchilarining qurilmalaridagi texnik nosozligi, Internetkanallarining faoliyatidagi nosozliklar, “Instagram” serverining ishlashidagi mumkin bo‘lgan muammolar uchun javobgar hisoblanmaydi.

## **6. Boshqa shartlar**

6.1. G‘olib sovrindan voz kechgan hollarda Tashkilotchi g‘olibga hech qanday tovon pulini to‘lamasdan, ushbu sovrindan bundan keyin foydalanish to‘g‘risida tegishli qaror qabul qilish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Shuningdek, agar Tashkilotchiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra, xususan uzrli sabablarga ko‘ra, g‘olib taqdim etilgan sovrinli sertifikatni faollashtirmagan bo‘lsa, sovrin berilishini talab qilish huquqi 2021-yil 30-apreldan so‘ng yo‘qoladi.

6.2. Tashkilotchi tanlovni o‘tkazish qoidalariga har qanday o‘zgartirish kiritish huquqiga ega va bu haqda o‘rnatilgan tartibda ishtirokchilarni xabardor qilishi lozim.

6.3. Tashkilotchi “Instagram” ijtimoiy tarmog‘idagi rasmiy “UZTELECOM” sahifasida (<https://www.instagram.com/uztelecomuz/>) va “Facebook” ijtimoiy tarmog‘idagi rasmiy sahifasida (<https://www.facebook.com/uztelecom/>), Telegram kanalida (<https://t.me/uztelecomuz>) hamda Kompaniyaning rasmiy veb-saytida reklama qilish maqsadida tanlov g‘olibining F.I.Sh., uning surati va tanlov g‘olibining “Instagram” ijtimoiy tarmog‘idagi akkauntiga havolani e‘lon qilish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Tanlov shartlarini qabul qilgan ishtirokchilar tanlovda g‘olib bo‘lsalar, yuqorida sanab o‘tilgan maqsadlarda ularning suratlari bilan ismlari e‘lon qilinishiga rozilik bildiradilar.

6.4. Tashkilotchi “Instagram” ijtimoiy tarmog‘idagi rasmiy sahifasida (<https://www.instagram.com/uztelecomuz/>), “Facebook” ijtimoiy tarmog‘idagi rasmiy “UZTELECOM” sahifasida (<https://www.facebook.com/uztelecom/>), “Telegram” kanalida (<https://t.me/uztelecomuz>) hamda Kompaniyaning rasmiy veb-saytida g‘oliblarning ismi e‘lon qilinganidan so‘ng, tanlov Ishtirokchilari bilan 24 soat ichida bog‘lanadi.

6.5. Tashkilotchi tanlov g‘olibi bilan noto‘g‘ri taqdim etilgan aloqa ma’lumotlari sababli bog‘lana olmaganligi uchun javobgar bo‘lmaydi.

6.6. Agarda Tashkilotchining fikriga ko‘ra, ishtirokchining tanlov shartlariga rioya qilmaganlik holatlari aniqlansa, Tashkilotchi ishtirokchini tanlovdan chetlashtirish huquqiga ega bo‘ladi.

6.7. Agarda majburiyatlar bartaraf etib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major holatlar) oqibatida bajarilmagan bo'lsa, Tashkilotchi o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi. Tashkilotchi tanlovda ishtirok etish bilan bog'liq bo'lgan tanlov ishtirokchilariga yetkazilgan zarar yoki ziyonni qoplamaydi.

6.8. G'olib Tashkilotchiga o'zi haqida noto'g'ri ma'lumotlarni bergan bo'lsa, ularni o'z vaqtida taqdim etmagan hollarda yoki boshqa biror bir ko'rinishda tanlov shartlarini buzgan bo'lsa, Tashkilotchi g'olibni sovrin bilan ta'minlashdan bosh tortishga haqlidir.

6.9. Tashkilotchining tanlov bilan bog'liq barcha masalalar bo'yicha qarorlari yakuniy va barcha ishtirokchilarga tegishli hisoblanadi.

6.10. Tashkilotchi ushbu shartlarda ko'zda tutilgan holatlardan tashqari tanlov ishtirokchilari bilan yozishmalar yoki boshqa aloqalarni o'rnatmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.

6.11. Tanlov yakunida g'olib bo'lgan ishtirokchilar ishlab chiqilgan videolavhalarni Kompaniyaning rasmiy veb-saytida va ijtimoiy tarmoqlarda keng targ'ib etishlari uchun ularning asl nusxalarini taqdim etishlari zarur bo'ladi.

6.12. Tashkilotchi:

texnik yoki boshqa sabablarga ko'ra, Tashkilotchiga bog'liq bo'lmagan holda, tanlov g'olibiga beriladigan sovrinni olish uchun zarur bo'lgan xatlar va/yoki hujjatlar, shu jumladan kerakli ma'lumotlar ishtirokchilardan belgilangan muddat ichida olinmaganligi;

ishtirokchilar tomonidan ushbu shartlarga muvofiq to'liq bo'lmagan va/yoki noto'g'ri berilgan bog'lanish uchun va boshqa ma'lumotlar berilganligi;

aloqa tashkilotlarining aybi bilan tanlov davomida foydalanilgan aloqa kanallarida texnik nosozliklar mavjudligi, shuningdek, Tashkilotchiga bog'liq bo'lmagan boshqa sabablarga ko'ra va/yoki Internetdagi firibgarliklar natijasida yoki Internet orqali va/yoki faksimil aloqa orqali ma'lumotlarni uzatishdagi xatoliklar/nosozliklar mavjudligi;

ishtirokchilar tomonidan ushbu shartlarda ko'zda tutilgan o'z majburiyatlari bajarilmaganligi/o'z vaqtida bajarilmaganligi uchun javobgar deb hisoblanmaydi.

6.13. Tashkilotchi tanlov shartlarini o'zgartirish huquqiga ega va bu haqda "Instagram" ijtimoiy tarmog'idagi rasmiy sahifasida (<https://www.instagram.com/uztelecomuz/>), "Facebook" ijtimoiy tarmog'idagi rasmiy "UZTELECOM" sahifasida (<https://www.facebook.com/uztelecom/>), "Telegram" kanalida (<https://t.me/uztelecomuz>) hamda Kompaniyaning rasmiy veb-saytida tegishli e'lon joylashtiriladi.